

# TARAQQIYOT TADQIQOTLARI: BARQAROR RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

## ИССЛЕДОВАНИЯ РАЗВИТИЯ: ПЕРСПЕКТИВЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

### DEVELOPMENT STUDIES: PERSPECTIVES ON SUSTAINABLE DEVELOPMENT

**MULLAJONOVA Arofatbonu**

*Namangan davlat universiteti*

*Tarix mutaxassisligi*

*I kurs magistranti*

#### **O‘ZBEKISTONDA OMMAVIY TADBIRLAR TUSHUNCHASI VA UNI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI**

##### **ANNOTASIYA**

Ushbu maqolada ommaviy tadbirlar tushunchasi va uning qonuniy asoslari, turlari, uni tashkil etuvchi mas'ul shaxslar va tashkilotlarning huquq va majburiyatlari, shuningdek, "ommaviy tadbir" tushunchasiga monand ravishda qo'llaniladigan "ommaviy bayram" tushunchasining izohi, ommaviy tadbirlarning xalqimiz orasidagi o'рни va ahamiyati haqida ma'lumotlar beriladi.

**Kalit so'zlar:** omma, ommaviy tadbir, bayram, alohida toifadagi ommaviy tadbirlar, birinchi toifadagi ommaviy tadbirlar, ikkinchi toifadagi ommaviy tadbirlar, ommaviy tadbirlarni tashkil etishda xavfsizlik masalalari.

##### **ANNOTATION**

This article discusses the concept of public events and their legal foundations, types, as well as the rights and responsibilities of responsible individuals and organizations involved in organizing such events. Additionally, it provides an explanation of the term "public celebration" as it aligns with the concept of "public event," highlighting the role and significance of public events among our people.

**Keywords:** public, public event, celebration, special categories of public events, first-category public events, second-category public events, safety issues in organizing public events.

##### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассматриваются понятие массовых мероприятий и их правовые основы, виды, а также права и обязанности ответственных лиц и организаций, участвующих в их организации. Кроме того, дается объяснение термина «массовый праздник» в соответствии с понятием «массовое мероприятие», подчеркивается роль и значение массовых мероприятий в жизни нашего народа.

**Ключевые слова:** общество, массовое мероприятие, праздник, отдельные категории массовых мероприятий, массовые мероприятия первой категории, массовые мероприятия второй категории, вопросы безопасности при организации массовых мероприятий.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan kundan boshlab har bir sohada tub ma'noda o'zgarishlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlar orasida ommaviy tadbirlar, xalqimizning milliy bayramlari va urf-odat an'alarini qayta tiklashga keng miqyosda nishonlash ainson kamoloti va ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasida alohida o'rin egallaydi. Shuningdek, mustaqillik sharofati bilan ko'plab milliy va diniy bayram, urf-odatlar qayta tiklandi, ularni emin-erkin hamda ommaviy tarzda nishonlash imkoniyati paydo bo'ldi.

Bugungi kunda ommaviy tadbirlar Respublikaning har bir go‘shasida chiroyli tarzda tashkil qilinib, uni tashkillashtirishning qonuniy asoslari va qoidalari ham ishlab chiqilgan. Chunki, jamiyatda ro‘y berayotgan ma’naviy yuksalish mamlakatda amalga oshirilayotgan milliy uyg‘onish jarayoni bilan bevosita bog‘liqdir. Yangi O‘zbekistonda ommaviy-madaniy tadbirlar asosida yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini kengaytirishda juda ahamiyatlidir.

Mazkur mavzuda so‘z borar ekan, birinchi navbatda, “Ommaviy tadbir” tushunchasini keng ko‘lamda izohlash kerak. Omma - oddiy qilib tushuntirilganda, “olomon”, “omma” va “avom” so‘zlari insonlarning ma’lum jihatlardagi mushtaraklik (milliy, kasbga doir va hokazo) tufayli birlashishini anglatadi [1].

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “ommaviy” so‘zi “ommaga, ko‘pchilikka oid, ko‘pchilik tomonidan yoki omma orasida bajariladigan ish va harakatlar” deya izohlangan [2].

Shuningdek, ushbu so‘zga mutanosib ravishda “Publico” atamasi qo‘llanilgan bo‘lib, u “ommaviy” deb tarjima qilinadi. Mazkur atama umumiy aholi uchun mo‘ljallangan yoki jamiyatning barcha a‘zolari uchun mavjud bo‘lgan har qanday narsani anglatadi [3].

“Ommaviy tadbir” tushunchasiga O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida quyidagicha ta‘rif berilgan: Ommaviy tadbir - 100 va undan ko‘p kishilarning ishtirokida ijtimoiy-siyosiy (anjumanlar, konferensiyalar, s‘yezdlar), madaniy-ommaviy va ko‘ngilochar-tomoshga dasturlari (musiqiy, adabiy va boshqa festivallar, konsert, teatr, sport, reklama tadbirlari, xalq sayillari, sirk, milliy namoyishlar, o‘yinlar, ko‘rik-tanlovlar va h.k), shuningdek, umumxalq diniy, kasb bayramlarini o‘tkazish maqsadida ommaviy tadbirni o‘tkazish ob‘yektida tashkil qilinadigan fuqarolarning birgalikdagi tadbiridir [4].

Shuningdek, qonunchilik doirasida ommaviy tadbirlarning quyidagi turlari mavjud:

- **alohida toifadagi ommaviy tadbirlar** - “Yangi yil”, “Navro‘z bayrami”, “Mustaqillik kuni”, “Xotira va qadrlash kuni”, “Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni”, “Ro‘za hayiti”, (Iyd al-fitr), “Qurbon hayiti” (Iyd al-adha), “Рождество”, “Пасха” bayramlarini nishonlashga doir tadbirlar, ta‘lim muassasalariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha test sinovlarini o‘tkazish, umumta‘lim maktablarida o‘quv yilining boshlanishi hamda tugashiga bag‘ishlangan, saylov va referendumlarni o‘tkazish bilan bog‘liq, shuningdek, xalqaro hamkorlik tashkilotiga a‘zo davlat rahbarlari ishtirokida o‘tkaziladigan tadbirlar hamda futbol bo‘yicha xalqaro miqyosdagi uchrashuvlar kiradi;

- **birinchi toifadagi ommaviy tadbirlar** - Toshkent, Nukus shaharlari va viloyat markazlarida o‘tkaziladigan, alohida toifadagi ommaviy tadbir toifalariga kirmaydigan tadbirlar;

- **ikkinchi toifadagi ommaviy tadbirlar** - alohida va birinchi toifadagi ommaviy tadbirlar toifasiga kirmaydigan tadbirlar [4].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4997-sonli farmoniga muvofiq, “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning 5-yo‘nalishida yirik ijtimoiy, siyosiy va madaniy-ommaviy tadbirlar o‘tkazilayotganda, xavfsizlikni ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirishda IIV, DXX, FVV, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari mas‘ulligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari loyihalari, turli xil muhim, ommaviy tadbirlarni o‘tkazishda jamoat xavfsizligi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta‘minlash, jamiyat hamda davlat manfaatlarini himoya qilish, ushbu sohadagi masalalarni huquqiy tartibga solish imkonini berashi belgilab qo‘yilgan [1].

Ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etishda quyidagi jihatlarga rioya qilish maqsadga muvofiq: ommaviy-madaniy tadbirlarda yuqori interaktivlikka erishish; ommaviy-madaniy tadbirlarda o‘zini-o‘zi tarbiyalash jarayonini tashkil etish; ommaviy-madaniy tadbirga kompleks yondashish; ommaviy-madaniy tadbirning ma’naviy-axloqiy ruhda bo‘lishi; inson va jamiyat manfaatlariga uyg‘un bo‘lishi shular jumlasidandir.

Ommaviy-madaniy tadbirlarni o‘tkazish bilan shug‘ullanadigan muassasa va tashkilotlar turli-tuman bo‘lib, ulardan xar biri muayyan turdagi tadbirlarni o‘tkazishga ixtisoslashadi: ommaviy-madaniy tadbirlarni olib boruvchi har bir muassasa va tashkilotlar o‘z mohiyati, xususiyati, imkoniyatlaridan kelib chiqib, o‘ziga xos shakl-tadbirlardan foydalanadi [6].

Xalqimiz orasida “Ommaviy tadbir” tushunchasiga monand ravishda “bayram” soʻzi ham qoʻllaniladi. “Bayram” - turkcha soʻzdan olingan boʻlib, “toʻy”, “marosim”, “xursandchilik” degan maʼnolarni bildiradi. Oʻz navbatida, “Bayram” soʻzining turli talqinlari ham mavjud. Sharqning buyuk olimi Mahmud Qoshgʻariy: “Bayram - xalqning shodlik va xursandchilik kunidir” [7] degan edi.

Bayram ijtimoiy mahalliy hayotning eng muhim qismlaridan boʻlib, shodiyona, xursandchilikni vujudga keltiradigan voqealarni nishonlaydi [8]. Bizningcha, “Ommaviy tadbir” va “ommaviy bayram” tushunchalari bir xil maʼno mazmunga ega.

Tarbiya tizmidagi bayram muhim va yirik tadbir sanaladi. Xalqning eng yaxshi anʼanalari, odatlari va axloqiy qarashlarini oʻzida mujassamlashtirishi, saqlashi hamda rivojlantirishi bilan bayramlarning ahamiyati kattadir. Bayramlarning yana bir xususiyati ularning maxsus sanalar bilan bogʻliqligidir. Oʻzbekistonga ommaviy bayramlar 1980-yillarning boshlarida kirib keldi. Jumladan, Toshkentning 2000 yillik yubileyi ilk bora ommaviy ravishda, ochiq maydonda bayram qilindi [9].

Ommaviy bayramlarning ommabopligi shundaki, birinchi navbatda, u amaliy namoyish etilganda, oʻzining chuqur ijtimoiy-psixologik ildiziga ega ekanligi namoyon boʻlib, sahnalashtirish jarayonida tasodifiy hol va elementlarga yoʻl qoʻyilmaydi.

Ommaviy bayramlar baʼzi bir tashkilotchi yoki tashkilotning xohishiga qarab oʻtkazilmasdan, balki keng xalq ommasining bayramga boʻlgan maʼnaviy ehtiyoji tugʻilganda oʻtkazilsa, haqiqiy bayram tomoshasi vujudga keladi. Mustaqillik gʻoyalarini keng xalq ommasiga singdirish, ulardagi yuksak fuqarolik tushunchalarini tarbiyalashda ommaviy bayramlarning tutgan oʻrni beqiyosdir [10].

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasining 1997-yildagi “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonuni asosida taʼlimning uzluksizligini davr talabalari asosida tashkil qilish va ular bilan bogʻliq boʻlgan barcha sohalarida ommaviy tadbirlarni muntazam ravishda tashkil etish vazifalari amalga oshirilmogʻda. Taʼlimning uzluksizligi va sogʻlom avlod tarbiyasiga qaratilgan davlat dasturlari negizida “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va “Universiada” musobaqalari shaklidagi uch boʻgʻinli sport oʻyinlari oʻtkazib kelinmogʻda. Ularning toʻrt bosqichli (jamoat, tuman-shahar, viloyat va Respublika) musobaqalari tashkil etilib, oʻquvchi va talaba yoshlarni sportga jalb etish, ularning jismoniy barkamolligini tarbiyalash asosiy maqsad hamda vazifa qilib belgilangan [11].

Yurtimizda tashkil etilayotgan ommaviy tadbirlar soni yildan yilga oshib bormogʻda. Jumladan, jami oʻtkazilgan ommaviy tadbirlar 2022-yilda 74 811 tani tashkil etgan boʻlsa, 2023-yilda ushbu koʻrsatkich 109977 taga yetib, oʻtgan yilga nisbatan 47 foizga oshgan. Tadbirlarda ishtirok etuvchilar koʻrsatkichining 259 051 nafardan (2018-yilda) 357 978 nafarga (2023-yilda) yetib, 58 foizga koʻpayganligi mamlakatda ommaviy tadbirlarni tashkil etish va oʻtkazishda jamoat tartibi hamda fuqarolar xavfsizligini taʼminlash, jamoat tartibining ommaviy buzilishini oldini olishda ichki ishlar organlarining boshqa huquqni muhofaza qiluvchi, davlat hokimiyati organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligining ilmiy-nazariy asoslari, tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini yanada takomillashtirishni taqozo etib, mazkur yoʻnalishda ilmiy izlanishlar olib borish, ularning natijalarini huquqni qoʻllash amaliyotiga tatbiq etishni talab etadi.

Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, yuridik va jismoniy shaxslar ommaviy tadbirlarni oʻtkazish tashkilotchilari boʻlishlari mumkin. Quyidagilar: tashkilotchilar, artistlar, sportchilar va dasturlarda nazarda tutilgan tomoshali chiqishlar (harakatlar)ni bevosita amalga oshiruvchi boshqa shaxslar hamda tomoshabinlar ommaviy tadbirlar qatnashchilari hisoblanadilar. Har bir ommaviy tadbir tashkil etilishi va oʻtkazilishi uchun maʼlum hudud va obyekt zarur boʻladi va uning ham oʻziga xos huquq va majburiyatlari mavjud boʻladi [12].

Xulosa qilib aytganda, ommaviy tadbirlar muhim ijtimoiy hodisa boʻlib, xalqimiz hayotida muhim oʻringa ega. Ommaviy tarzda tashkil etiladigan ayniqsa ommaviy bayramlar fuqarolarning diniy, madaniy hordiq chiqarish masalalariga boʻlgan ehtiyojini u yoki bu tarzda qondiradi. Shuningdek, bunday ommaviy tadbirlarning tashkil etilishida xavfsizlik masalalariga alohida eʼtibor berilishi va nazorat qilinishi turli xil koʻngilsizliklar sodir boʻlishini oldini oladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Густав Лебон. Омма психологияси. - Тошкент: "Ёшлар матбуоти", 2021. - Б.18.
2. <https://izoh.uz/word/ommaviy>
3. <https://uz.opentran.net/dictionary/ommaviy.html>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi VM-205-sonli "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // <https://lex.uz/mact/-2438871>
5. <https://lex.uz/mact/-3107036>
6. Najmetdinova M. M. Yangi O'zbekistonda ommaviy-madaniy tadbirlar asosida yoshlar ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish istiqbollari // Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture. - 2024. - Volume 4, Issue 2. - B. 42.
7. Кошғарий М. Девону луғотит-турк, 1 том. - Т.: Фан, 1963 йил, 447 бет.
8. Қорабоев У. Ўзбек халқи байрамлари. - Тошкент: Шарқ, 2002. - Б. 16.
9. Mirpo'latov H. T. Ommaviy bayramlar rejissurasi. - Toshkent: Cho'lpon, 2008. - B. 3-4.
10. Ahmedov F. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari. - Toshkent: Aloqachi, 2008. - B. 5.
11. Naydarov B. T., Imomov M. A., Mirzayev I. I., To'raqulov I. R., Jumonov X. A., Ziyatov M. N. Jismoniy madaniyat va sport tizimida ta'limning uzluksiz jarayonini tashkiliy asoslari. Uslubiy qo'llanma. - Samarqand, 2018. - B. 61.
12. Xamdamov A. X. Ommaviy tadbirlar tushunchasi // Лучшие интеллектуальные исследования. Часть 11. Том-5. - 2023. - С. 86.